

QORAQALPOQ RAQS MAKTABINING VUJUDGA KELISHIDA ELEZAVETA ARTYOMOVNA PETROSOVANING O‘RNI

N.M.Abdiramanov

*O‘zDXA Urganch filiali “Xalq sahna raqslarini
o‘rganish uslubiyoti” fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: maqolada Qoraqalpoq raqs maktabining vujudga kelishida Qoraqalpoq sahna raqsining asoschilaridan biri, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Elezaveta Artyomovna Petrosovaning qilgan say-harakatlari, samarali mehnati, qoraqalpoq xalqining o‘ziga xos milliy qiyofasi, xususiyati, fazilati, fe‘l-atvori, ma‘naviy olamining o‘ziga xosligi haqida ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan birga qoraqalpoq raqs san‘atining kecha va bugungi kundagi holati, raqslarning xilma xilligi, asosiy qo‘l va oyoq holatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq raqsi, raqs maktabi, syujetli raqs, “Ayqulash”, “Qirq qiz”, “Salma”, “aydinli”, harakat.

Аннотация: в статье описаны усилия, плодотворная деятельность Елизаветы Артёмовны Петросовой, одной из основоположниц каракалпакского сценического танца, народной артистки Узбекистана и Каракалпакстана, неповторимый национальный образ, особенности, достоинства, характер, характер каракалпакского народа в творчестве. каракалпакской танцевальной школы. Дана информация об уникальности духовного мира. В то же время обсуждалось состояние каракалпакского танцевального искусства вчера и сегодня, разнообразие танцев, основные положения рук и ног.

Ключевые слова: народный танец, школа танцев, сюжетный танец, «Айкулаш», «Сорок девушек», «Салма», «Айдинли», движение.

Аннотация: в статье описаны усилия, плодотворная деятельность Елизаветы Артёмовны Петросовой, одной из основоположниц каракалпакского сценического танца, народной артистки Узбекистана и Каракалпакстана, неповторимый национальный образ, особенности, достоинства, характер, характер каракалпакского народа в творчестве. каракалпакской танцевальной школы. Дана информация об уникальности духовного мира. В то же время обсуждалось состояние каракалпакского танцевального искусства вчера и сегодня, разнообразие танцев, основные положения рук и ног.

Ключевые слова: народный танец, школа танцев, сюжетный танец, «Айкулаш», «Сорок девушек», «Салма», «Айдинли», движение.

Har bir xalqning milliy raqs ijro usullari o‘z xalqining milliy ornamentlarini o‘zida mujassam aylab, uning aynan qaysi xalqqa tegishli ekanligidan darak beradi. Bunda ularning dastlabki ta‘lim oluvchi raqs maktablari katta ahamiyat kasb etadi.

Hammamizga ma'lumki, O'rta Osiyo xaqqlari orasida san'at sohasiga e'tiborning kuchayib, qiziqishlarning ortib borishi, shu o'rinda milliy raqs san'atining rivojlanish bosqichlari hamda raqs maktablarining vujudga kelishi XIX asr oxirlari XX asr boshlariga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bu san'atimizning tarixiy taraqqiyot jarayonlari Yevropa klassik maktablari bilan solishtirganda birmuncha kechroq rivojlanganligi ko'zga tashlansada, professional teatr san'ati bilan o'zlashtirilgan sahna raqs san'ati XX asrda paydo bo'lib, qisqa davr ichida o'zining bor bo'y-bastini namoyon etdi.

Bugungi kundagi san'atimizning har bir sohasi, shular qatori milliy raqslarimizning o'ziga xos ijro usullaridagi sahnaviy ko'rinishlari dunyo xalqlarini hayratga solib, lol qoldirib kelmoqda.

Raqslarimizning bu darajada keng miqyosda rivojlanishida milliy raqs maktablarimizning o'rni o'ziga hos ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq milliy xalq sahnaviy raqslarining rivojlanishida Toyirov, Tamara Ibrohimova, Ali Ardobus Ibragimov, Rima Adikova va boshqa ko'plab raqs ustalarining o'rni katta. Ular orasida Qoraqalpoq sahna raqsining asoschilaridan, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Lizaxonim Petrosovaning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Lizaxonim Petrosova ilk bora 1956-1959-yillar oralarida xalq sahna raqslarini tadqiq qilib, yangidan milliy raqs asarlarini yaratish ustida astoydil ish olib bordi. L.Petrosovaning qoraqalpoq xoreografiyasi taraqqiyoti yo'lida qilgan xizmatlari qoraqalpoq raqs san'ati tarixida katta iz qoldirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Elezaveta Artyomovna Petrosyan (taxallusi-Lizaxonim)1913-yil yurtimizning betakror shaharlaridan biri bo'lgan, ya'ni Marg'ilon shahrida dunyoga keladi. U teatr, filarmoniya va ansambllarda dastlab aktrisa, ashulachi va raqqosa sifatida o'z faoliyatini olib boradi. Hayotiy tajriba va ustozlarining maslahatlari bilan oldiga aniq bir maqsad qo'yib, san'atning raqs yo'nalishida o'z yo'lini topadi.

Elezaveta Artyomovna 16 yoshdan boshlab Andijondagi teatrda o'z faoliyatini yuritib, ustozlarining ta'lim-tarbiyasi asosida katta raqs asarlarini yaratadi. Vaqt o'tib o'zi mustaqil ravishda Andijon teatrda va O'zbekiston davlat filarmoniyasida baletmeysterlik faoliyatini olib boradi. Shu yillar davomida "*Qozoqcha massali raqs*", "*Tanovor*", "*Qora sochim*", "*Pilla*", "*Sini-xiroj*", "*Pomircha*", "*Farg'onacha bayramona*", Ye.Baranovski bilan birgalikda "*Hosil bayrami*" singari yakka va ommaviy, sodda va murakkab syujetli raqslarni sahnalashtirib kelgan. Izlanishlari natijasida O'zbek ashula va raqs ansambli dasturiga qoraqalpoq raqsini ham qo'shish maqsadida "Qoraqalpoq to'yi" raqsini yaratadi. 1956-yil Qoraqalpog'iston adabiyoti va san'atini Toshkent shahrida o'tadigan dekadasiga tayyorlash maqsadida Nukus shahriga yordamga keladi. Bu voqea qoraqalpoq raqsining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Shu yili Qoraqalpog'iston filarmoniyasi qoshida ashula va raqs ansambli tashkil etilib, unga Lizaxonim Petrosova bosh baletmeyster hamda badiiy rahbar etib tayinlandi. Qoraqalpoq milliy raqs maktabi bir necha yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan

bo'lib, 1963-yili Nukusda Madaniyat va san'at texnikumida qonuniy faoliyati tashkil etiladi.

L.Petrosova bir o'rinda shunday yozadi: "qisqa vaqt ichida olis rayonlarda bo'lib, namat bosuvchi artellarni ko'rdim, Amudaryo va Orol baliqchilari bilan tanishdim, to'r to'qishni o'rgandim, baliqchilarning ashula va dostonlarini tingladim, muzeylarda, to'y va boshqa marosimlarda bo'ldim"¹.

Lizaxonim Petrosova shu yillar davomida qoraqalpoq xalqi hayotidan "To'y", "Ilme sultan", "Chavondoqlar", "Amudaryo", "Shunday kuldim", "Ayqulash", "Oq oltin" vals, "Qirq qiz", "Uloq", "Nozli" "Baliqchilar", "Kiyiz basiu"(namat bosish), "Cho'ponlar", "Xalqlar do'stligi", "Bog'bon yigitga" raqslarni sahnalashtirgan. Bu raqslar tezda fursatda xalqimiz orasida tanilib, qoraqalpoq xalqi turmushida mustahkam o'rin egallaydi.

1957-yili Liza Petrosova rahbarligidagi bu ansambl repertuaridagi raqslar bilan jahon yoshlari va studentlarining Moskvada bo'lib o'tgan festivalda qatnashgan va kumush medal bilan mukofotlangan. Uning bunday yuksak cho'qqilarni zabt etishida raqs yaratishda boshqacha, o'ziga xos yo'lni tanlagani sabab bo'ldi.

L.Petrosova ma'lum bir mavzu asosida raqs yaratar ekan, uning zamiriga qoraqalpoq xalqiga hos bo'lgan va azaldan davom etib kelayotgan milliy-madaniy urf-odatlaridan kelib chiqqan holda raqs shaklini yaratadi. Har bir qo'l-oyoq holatlarida hayvon va qush hamda milliy naqsh chiziqlaridan kelib chiqib, alohida nom bilan ataydi. Shuningdek ijro etiluvchi xarakterlarni ham shular asosida shakllantirib, nomli harakatlar yaratadi. Bu ishlarni amalga oshirishda ulardagi ishtirokchilarning barchasi shu soha mutaxassisi bo'lmasa-da, lekin ulardagi qiziqishning kuchliligi yangidan-yangi raqs asarlarining yaratilishiga zamin yaratdi. Mana shu faktlar Liza Petrosovaning qoraqalpoq qo'shiq hamda raqs ansamblini tuzishdagi xizmati, xoreografiya san'atini rivojlantirishdagi salmoqli hissasi bo'ldi.

Lizaxonimga raqs jamoasini tuzishdek mas'uliyatli ishni muvaffaqiyatli bajarishda xalq ijodiyoti namoyondalari katta yordam ko'rsatdi. Ular orasida o'sha paytdagi ashulachilar, bastakorlar, rassomlar va qishloqlardagi san'at muxlislari qo'llaridan kelgan yordamlarini ayashmadi. Shu sababli ham qoraqalpoq raqsi Lizaxonim Petrosova rahbarligida san'atsevar xalq tomonidan kashf etilgan.

Lizaxonim qoraqalpoq raqsini yaratishda o'zbek raqs san'atining taraqqiyot bosqichlarini yaxshi bilganligi qo'l keldi. Natijada Farg'ona, Buxoro, Xorazm raqslaridan keskin farqlanuvchi yangi va jozibador qoraqalpoq milliy raqsi dunyoga keldi.

Qoraqalpoq raqsining dastlabki ijodkorlari va ijrochilari birinchi chiqishlarini ommabop xalq qo'shiqlari bilan namoyish qildi. Ilk bor tomoshabinlar huzurida o'z san'atlarini ko'rsatishganida raqsning o'zini emas, balki uni xalq qo'shiqlari bilan

¹ Е. А. Петросова "Каракалпакский танец " Издательство литературы и искусства имени Гафура Гулама Ташкент-1976. 227 бет

bog‘lab, moslashtirib ijro etganlar. “Kigiz basu”, “Ilme sultan” kabi o‘zida xalqning an’anaviy mehnat va o‘yinlarini, rasm-rusumlarini tarannum qiluvchi raqslar shular jumlasidandir. To‘y-tomoshalarda ijro etiladigan raqslar ijodkorlarga birmuncha qulayliklar yaratdi. Sababi bu raqslarning deyarli barchasi mehnat jarayonini aks ettiruvchi harakatlar, liboslar ijrochilar va tomoshabinlar uchun yaxshi tanish edi. Baletmeyster A.A.Ibragimov sahnalashtirgan raqslarning mazmuni va xarakterida qoraqalpoq xalqining to‘g‘riso‘zligi, mardligi shartli ramziy ma’noda yaratilgan bo‘lsa, L.Petrosova xalqning psixologik jihatlari bilan urf-odatlarining go‘zal va nozik tomonlariga ko‘proq e’tibor qaratgan. Manbalarga asosan qoraqalpoq raqsining asosiy shakllari xalq ijodida ko‘zga tashlanadigan naqshlardan olingan. Masalan “*Salma*”, “*Aylanma*”, “*Quu moyin*”, “*Qoshqar muyiz*” holatlari. Elizaveta Petrosova “Qoraqalpoq raqsi” kitobida: “Men qoraqalpoq raqsidagi qo‘l harakatlarini asosan, naqshlardan olganman”² deb aytib o‘tgan. Bu borada uning davomchilaridan biri, baletmeyster P.Madreymov esa bu kitobdagi qo‘l harakatlarini xalq naqshlaridan olingan degan fikrga unchalik qo‘shilmaydi, hatto ba’zi bir harakatlarni qayta ko‘rib chiqish kerak, deb ta’kidlab o‘tadi.

L. Petrosova 1956-1970-yillarda Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat filarmoniyasi qoshidagi ashula va raqs ansambli va K.S.Stanislavskiy nomli musiqali drama va komediya teatrida faoliyati davomida ko‘plab qoraqalpoq milliy xalq sahna raqslarini yaratadi. Vaqt o‘tishi bilan Lizaxonimning qoraqalpoq raqsi san’ati borasida to‘plangan barcha bilim va tajribalari yig‘indisi 1976-yilga kelib G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashiryoti tomonidan “Qarakalpakskiy tanets” deb nomlanuvchi kitobining nashr etilishiga sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda qoraqalpoq milliy raqslarini o‘qitishda E.A. Petrosovaning metodik qo‘llanmasi raqs o‘qituvchilari uchun asosiy ish quroli sifatida foydalanib kelinmoqda.

Qo‘llanmada Farg‘ona, Buxoro, Xorazm raqs maktablaridan farqli o‘laroq har bir qo‘l holatiga alohida nom berilib, 14 ta qo‘l va 5 ta oyoq asosiy holat qilib tizimlashgan. Ular quyidagicha tasvirlangan: Qo‘l kaftining bir nechta ko‘rinishi mavjud bo‘lib, yigitlarda: a) qo‘l kafti va barmoqlar orasi ochiq; b) qo‘l panjasi musht yoki yarim musht holatda; c) qo‘l panjalari kafti ochiq; d) barmoqlar bir-biriga yopishgan holatlardir.

Har bir qo‘l kafti ko‘rinish usullarida qo‘lning bilak bo‘g‘ini (kist) tepaga, pastga bukish va to‘g‘ri qilib ochish usullari mavjud. Qizlarda ham qo‘lning bilak bo‘g‘ini bajarilish jihatdan yigitlarniki kabi bo‘lib, ular orasidagi farq esa barmoqlarning ochilishi va egilishi hamda kaftlarining yopilishida bo‘ladi.

Qizlarda bosh barmoq (1chi) bilan o‘rtancha (3chi) barmoqlar bir-biriga tegar-tegmas bo‘lib egiladi. Yigitlarda kaftlar musht qilib yopiladi. Lekin raqs ijrosi paytida

² E. A. Петросова "Каракалпакский танец " Издательство литературы и искусства имени Гафура Гулама Тошкент-1976 16-бет.

asosiy holat chizig'i saqlanib, yuqorida aytib o'tilgan asosiy ko'rinishlardan foydalangan holda harakatlarga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Asosiy qo'l holatlarini ijro etish jarayonida hamma vaqt qo'l holatlarida qizlarning barmoq uchlari odatdagidek birinchi va uchinchi barmoqlar bir-biriga tegar-tegmas yaqin bo'lib, yigitlarda esa faqat "shag'ala" to'rtinchi holati va 13-holatning a) qalash, b) baliq quyriq, s) go'rek deb nomlanuvchi holatlarida kaft va barmoq uchlari ochiladi.

"Salma" tayorlanish holati. Bunda qo'llar erkin bo'lib pastga tushirilgan gavdaning yon qismidan qo'llarning bilak bo'g'ini tashqi tomoni tirsaklar bukilgan holda yon tomondan belga tushadi. Qo'l kafti va barmoqlar yigitlarda musht, qizlarda esa birinchi va o'rtancha barmoqlar tegar-tegmas yaqin egilgan bo'ladi.

Har bir xalqning sahnaviy raqs ko'rinishlari o'zining milliyligi bilan bir-biridan tudan farq qilib, faqatgina o'sha xalqqa xos va mos bo'lgan holda alohida ajralib to'radi. Raqs ijrosidagi holat va harakatlardagi o'xshash jihatlarni ko'zatish, hozirgi kunda tabiiy bir holga aylanib bormoqda. Bunday jarayonni raqs ijrosidagina, emas balki uni o'qitish maktablarida ham kutishimiz mumkin. Gapimiz isboti sifatida qoraqalpoq raqs maktabidagi asosiy qo'l holatlarini, o'zbek hamda gruzin raqs maktablarining ayrim o'xshash va farqli jihatlarni misol keltirib o'tishimiz mumkin.

Qoraqalpoq raqs maktabining asosiy 2 qo'l holatini R.Karimovning o'bek milliy raqs maktabining Farg'ona yo'nalishidagi asosiy 1-qo'l holatiga, D.D Javrihviliyning 1975 yil Tbilisi shahrida nashrdan chiqqan "Грузинские народниие танци" deb nomlanuvchi kitobidagi gruzin raqs maktabining asosiy 1 qo'l holatlariga o'xshatish mumkin. Barmoq uchlari, kaft va bilak bo'g'inida ayrim o'ziga hos farqlar bo'lib, ularning ikki yon tarafga, yelka balandligida ochilishida deyarli farq sezilmaydi. Bundan tashqari qoraqalpoq raqs maktabidagi bir qo'l yelka bo'yab yon tomonga ikkinchi holatda ochilishi, ikkinchi qo'l yon tomondan tepaga uchinchi holatga ko'tarilishi, o'zbek va gruzin raqs maktabining 3 asosiy qo'l holati deb nomlanishi mumkin. Qoraqalpoq raqs maktabidagi ikki yon tomondan yuqoriga, yarim aylana shaklida ko'tariluvchi "qoshqar mo'yiz" deb nomlanuvchi 3-asosiy qo'l holati, o'zbek raqs maktabining 2-asosiy qo'l holati bilan o'xshash jihatini, gruzin raqs maktabidagi "magali" yoki "irmula" deb nomlanuvchi 4 asosiy qo'l holati bilan deyarli farq yo'qligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, asosiy qo'l holatlarida faqli jihatlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, qoraqalpoq milliy raqsining metodik qo'llanmasida boshqa xalq raqs maktabida taktorlanmas ko'rinishlari mavjud. Bulardan 8-"Belbeu", 9-"Aydinli", 10-"Yinagash", 10-"Putaisa", 11-"Shak-shakli tajim", 12-"Tuyinshik", 13-"Balik quyriq", "Qalash", "Korek" deb nomlanuvchi asosiy qo'l holatlarini aytishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bularning asoschisi hisoblanmish Lizaxonim Petrosova bu holatlarni yaratish maqsadida avvalo shu xalqning milliy urf-

odati, tabiati bilan yaqindan tanishib, shular asosida milliy raqsning asosiy qo‘l holat va harakatlarini yaratishga muvoffaq bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avdeyeva L.A. O‘zbekiston raqs san’ati. -T.: GIXL, 1966.
2. Е. А. Петросова “Каракалпакский танец” Издательство литературы и искусства имени Гафура Гулама Тошкент-1976
3. Qodirov M.X. O‘zbek xalq tomosha san’ati. -T.: O‘qituvchi, 1981.
4. Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. -T.: M.Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001.